



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

OLIY TA'LIMDA TBLTNING UCH BOSQICHLI MODELI ORQALI LINGVISTIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Djurayeva Nargiza Kudratillayevna
Xalqaro Nordic Universiteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda vazifaga asoslangan til o'qitish (TBLT) yondashuvining uch bosqichli modeli — pre-task, task va post-task bosqichlarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida moliya va iqtisod yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar misolida mazkur bosqichlarning amaliy qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Har bir bosqichning didaktik vazifalari, kommunikativ faoliyatni rivojlantirishdagi roli hamda lingvistik kompetensiyaning tarkibiy qismlariga ta'siri yoritiladi. Tadqiqot natijalari ushbu model talabalarning nutqiy faolligini oshirish, real hayotiy vaziyatlarga mos kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish va tilni amaliy qo'llash samaradorligini kuchaytirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: TBLT, lingvistik kompetensiya, pre-task, task bosqichi, post-task, kommunikativ yondashuv, oliy ta'lim, ESP.

РАЗВИТИЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ ЧЕРЕЗ ТРЕХЭТАПНУЮ МОДЕЛЬ TBLT

Джураева Наргиза Кудратиллаевна
Международный университет Nordic, старший преподаватель

Аннотация

В данной статье анализируется роль трехэтапной модели подхода Task-Based Language Teaching (TBLT) — pre-task, task и post-task — в развитии лингвистической компетенции студентов в системе высшего образования. В рамках исследования рассматривается практическое применение данных этапов на примере студентов направления финансов и экономики. Освещаются дидактические функции каждого этапа, их влияние на развитие коммуникативной активности и формирование компонентов лингвистической компетенции. Результаты исследования показывают, что данная модель способствует повышению речевой активности студентов, формированию навыков коммуникации в реальных ситуациях и эффективному использованию языка в профессиональной сфере.

Ключевые слова: TBLT, лингвистическая компетенция, pre-task, task этап, post-task, коммуникативный подход, высшее образование, ESP.

DEVELOPING LINGUISTIC COMPETENCE IN HIGHER EDUCATION THROUGH THE THREE-STAGE TBLT MODEL

Djurayeva Nargiza Kudratillayevna
International Nordic University, Senior Lecturer

Abstract

This article examines the role of the three-stage model of Task-Based Language Teaching (TBLT) — pre-task, task, and post-task — in developing students' linguistic competence in higher education. The study focuses on the practical implementation of these stages among students majoring in finance and economics. It highlights the pedagogical functions of each stage, their contribution to communicative performance, and their impact on the development of linguistic competence. The findings indicate that the TBLT framework significantly enhances students' speaking activity, promotes real-life communication skills, and improves the effective use of language in professional contexts.

Keywords: TBLT, linguistic competence, pre-task, task stage, post-task, communicative approach, higher education, ESP.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida xorijiy tilni o'qitish jarayoni tobora kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilmoqda. Globalizatsiya va xalqaro professional muloqotning kengayishi natijasida talabalardan nafaqat til birliklarini bilish, balki ularni real kommunikativ vaziyatlarda samarali qo'llay olish ham talab etilmoqda [1; 45]. Ayniqsa, moliya va iqtisod yo'nalishida tahsil olayotgan

talabalar uchun ingliz tili kasbiy faoliyatning ajralmas vositasiga aylanib, ularning analitik fikrlashi va professional muloqot kompetensiyalari bilan bevosita bog'lanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy tilni o'qitishda an'anaviy grammatikaga yo'naltirilgan metodlardan kommunikativ va faoliyatga asoslangan yondashuvlarga o'tish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunday yondashuvlar ichida vazifaga asoslangan til o'qitish — Task-Based Language Teaching (TBLT) alohida ahamiyat kasb etadi [2; 32]. Mazkur yondashuv talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini oshirib, tilni real hayotiy vaziyatlarga yaqin sharoitda o'zlashtirishga xizmat qiladi [3; 118].

TBLT yondashuvi doirasida dars jarayoni uch asosiy bosqich asosida tashkil etiladi: pre-task, task cycle va post-task. Ushbu bosqichlar til o'rganish jarayonining izchilligini ta'minlab, talabalarning bosqichma-bosqich kommunikativ faoliyatga kirib borishini ta'minlaydi. Xususan, pre-task bosqichi tayyorgarlik vazifasini bajarsa, task bosqichi asosiy kommunikativ faoliyatni o'z ichiga oladi, post-task bosqichi esa tahlil va mustahkamlashga xizmat qiladi [4; 63]. Shu bilan birga, amaliyotda ushbu bosqichlarni oliy ta'lim sharoitida, ayniqsa moliya-iqtisod yo'nalishidagi talabalarning kasbiy ehtiyojlari bilan uyg'un holda tashkil etish yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Natijada, TBLTning nazariy asoslari mavjud bo'lsa-da, uning amaliy qo'llanilishida muayyan metodik bo'shliqlar kuzatilmoqda [5].

Mazkur maqolaning maqsadi — TBLTning pre-task, task va post-task bosqichlarini oliy ta'lim muassasalarida, xususan moliya va iqtisod yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar misolida tahlil qilish hamda ularning lingvistik kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rnini asoslab berishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Vazifaga asoslangan til o'qitish (Task-Based Language Teaching — TBLT) yondashuvi zamonaviy metodik tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositasi sifatida keng e'tirof etilgan. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari bir qator xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular orasida Rod Ellis, David Nunan hamda Jane Willislarining ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Rod Ellis TBLTni kommunikativ vazifalarni bajarish orqali til birliklarini tabiiy o'zlashtirishga asoslangan yondashuv sifatida talqin qilib, topshiriq markaziy o'rin egallashini ta'kidlaydi [6; 16]. Uning fikricha, tilni samarali o'zlashtirish real kommunikativ faoliyat jarayonida yuzaga keladi. David Nunan esa TBLTni o'quv jarayonini real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiruvchi yondashuv sifatida baholab, topshiriqlarni o'quvchilarning ehtiyojlari va tajribasi bilan bog'lash zarurligini ilgari suradi [7].

TBLTning amaliy modeli Jane Willis tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda dars jarayoni uch asosiy bosqich — pre-task, task cycle va post-task shaklida tashkil etiladi [8]. Ushbu model har bir bosqichning o'ziga xos didaktik vazifalarini aniq belgilab beradi. Shuningdek, Jane Willis va Dave Willis TBLT samaradorligi aynan ushbu bosqichlarning izchil va o'zaro uyg'un holda tashkil etilishiga bog'liqligini ta'kidlaydilar [9; 52].

Mahalliy tadqiqotlarda ham chet tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ustuvorligi asoslab berilgan. Xususan, J. J. Jalolov xorijiy tilni o'qitishda o'quvchilarni faol nutqiy faoliyatga jalb etish zarurligini qayd etadi [10; 27]. Shunga qaramay, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, TBLTning uch bosqichli modelini oliy ta'lim muassasalarida, ayniqsa moliya-iqtisod yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ehtiyojlariga mos holda qo'llash masalasi yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Ayniqsa, har bir bosqichning konkret amaliy mazmuni va kasbiy yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot Xalqaro Nordic Universitetida moliya va iqtisod yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi TBLTning uch bosqichli modeli — pre-task, task va post-task bosqichlarining talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sirini aniqlash hamda ushbu bosqichlarning amaliy samaradorligini baholashdan iborat bo'ldi.

Tadqiqot dizayni kvazi-eksperimental yondashuv asosida tashkil etildi. Unda jami 37 nafar talaba ishtirok etdi. Ishtirokchilar o'quv guruhlarini kesimida ikkita alohida guruhga ajratildi: tajriba guruhi (19 nafar) va nazorat guruhi (18 nafar). Talabalarning ingliz tili darajasi taxminan B1 bosqichiga mos kelib, bu ularning kommunikativ vazifalar asosida til o'rganish jarayonida faol ishtirok etishiga imkon beruvchi muhim omil sifatida qaraldi.

Tajriba guruhida o'quv jarayoni TBLTning uch bosqichli modeli asosida tizimli ravishda tashkil etildi. Darslar davomida har bir bosqichning didaktik vazifalari aniq belgilandi va ular o'zaro mantiqiy ketma-ketlikda amalga oshirildi. Xususan, pre-task bosqichida talabalar mavzuga jalb etilib, ularning mavjud bilimlari faollashtirildi, zarur leksik va semantik birliklar kiritildi hamda asosiy kommunikativ

vazifa uchun kontekst yaratildi. Bu bosqich talabalarning keyingi faoliyatga tayyorgarligini ta'minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etdi.

Task bosqichida talabalar kichik guruhlarda ishlagan holda muayyan kommunikativ vazifalarni bajarishga jalb etildilar. Bu jarayonda ular muhokama qilish, fikr almashish, qaror qabul qilish va o'z nuqtayi nazarini asoslash kabi faoliyatlarda ishtirok etdilar. Aynan ushbu bosqich talabalarning tilni real kommunikativ muhitga yaqin sharoitda qo'llash imkonini yaratdi. Shu jihatdan, task bosqichi TBLT yondashuvining markaziy elementi sifatida qaraladi [11; 38].

Post-task bosqichida esa talabalar tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil qilinib, xatolar ustida ishlash, nutq aniqligini oshirish hamda yangi til birliklarini mustahkamlashga e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, ushbu bosqichda refleksiya elementlari ham qo'llanilib, talabalar o'z faoliyatini baholash va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa, o'z navbatida, til o'rganish jarayonining ongli va tizimli shakllanishiga xizmat qildi.

Nazorat guruhida esa o'quv jarayoni an'anaviy yondashuv asosida olib borildi. Darslar asosan grammatik va leksik materiallarni tushuntirish hamda mashqlar orqali mustahkamlashga yo'naltirildi. Kommunikativ elementlar qisman mavjud bo'lsa-da, ular aniq bosqichlarga ajratilmagan holda epizodik tarzda qo'llanildi.

Tadqiqot davomida ma'lumot to'plashning bir nechta usullaridan foydalanildi. Dastlabki bosqichda talabalarning lingvistik kompetensiyasini aniqlash maqsadida pre-test o'tkazildi, tajriba yakunida esa post-test orqali natijalar qayta baholandi. Testlar gapirish, yozish, o'qish va tinglab tushunish ko'nikmalarini qamrab oldi. Bundan tashqari, talabalar faoliyatini baholashda maxsus ishlab chiqilgan baholash mezonlari — rubrikadan foydalanildi.

Olingan natijalarni tahlil qilishda miqdoriy va sifat yondashuvlari uyg'unlashtirildi. Miqdoriy tahlil orqali pre-test va post-test natijalari solishtirilib, o'zgarish dinamikasi aniqlangan bo'lsa, sifat tahlili orqali talabalarning dars jarayonidagi ishtiroki, kommunikativ faolligi va vazifalarni bajarishdagi yondashuvi o'rganildi. Ushbu kompleks yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash bilan birga, o'quv jarayonidagi o'zgarishlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi [12; 16].

TADQIQOT NATIJALARI

Mazkur tadqiqot doirasida olingan natijalar TBLTning uch bosqichli modeli asosida tashkil etilgan o'quv jarayonining talabalarning lingvistik kompetensiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatganini ko'rsatdi. Natijalar pre-test va post-test orqali olingan ma'lumotlarni solishtirish asosida tahlil qilindi.

Dastlabki baholash natijalari (pre-test) shuni ko'rsatdiki, tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasida lingvistik kompetensiya darajasi bo'yicha sezilarli farq kuzatilmadi. Har ikkala guruhda ham talabalar asosan o'rta darajada — B1 bosqichiga mos ko'rsatkichlarni namoyon etdilar. Bu esa tajriba boshlanishidan oldin guruhlar o'rtasida teng sharoit mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Tajriba yakunida o'tkazilgan post-test natijalari esa sezilarli o'zgarishlarni namoyon etdi. Ayniqsa, tajriba guruhida lingvistik kompetensiyaning barcha asosiy komponentlari — gapirish, yozish, o'qish va tinglab tushunish ko'nikmalari bo'yicha ijobiy dinamikalar kuzatildi. Nazorat guruhida ham ma'lum o'sish qayd etilgan bo'lsa-da, ularning ko'rsatkichlari tajriba guruhiga nisbatan pastroq darajada bo'ldi.

Quyidagi jadvalda pre-test va post-test natijalarining umumlashtirilgan ko'rsatkichlari keltirilgan:

Jadval 1. Tajriba va nazorat guruhlarida lingvistik kompetensiya ko'rsatkichlari (%)

Ko'nikma	Tajriba guruhi (Pre)	Tajriba guruhi (Post)	Nazorat guruhi (Pre)	Nazorat guruhi (Post)
Speaking	52%	74%	51%	60%
Writing	55%	76%	54%	63%
Reading	60%	80%	59%	68%
Listening	53%	77%	52%	64%

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida barcha ko'nikmalar bo'yicha o'sish darajasi ancha yuqori bo'lgan. Xususan, speaking ko'nikmasida 22% ga, writingda 21% ga, readingda 20% ga va listeningda 24% ga o'sish kuzatildi. Bu esa TBLTning uch bosqichli modeli ayniqsa kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatadi.

Nazorat guruhida esa o'sish ko'rsatkichlari nisbatan past bo'lib, ular asosan 8–10% atrofida qayd etildi. Bu holat an'anaviy yondashuvning tilni amaliy qo'llashga yo'naltirilgan ko'nikmalarni rivojlantirishda cheklangan imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarini yanada batafsil tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida o'zgarishlar nafaqat umumiy ko'rsatkichlar darajasida, balki individual ishtirokchilarning natijalarida ham izchil namoyon bo'ldi. Xususan, dastlab past yoki o'rta darajadagi natija ko'rsatgan talabalar post-test jarayonida sezilarli o'sishni namoyish etdilar. Bu holat TBLT yondashuvining differensial ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi, ya'ni turli darajadagi talabalar uchun bir xil kommunikativ vazifalar orqali o'sish imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, speaking va listening ko'nikmalarida kuzatilgan keskin o'sish talabalar dars jarayonida faol muloqotga jalb etilganligi bilan izohlanadi. Bu esa til o'rganish jarayonida passiv bilim emas, balki faol ishtirok asosiy omil ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bundan tashqari, tajriba jarayonida talabalarining o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabatida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Darslarda TBLT asosida tashkil etilgan topshiriqlar talabalarining qiziqishini oshirib, ularning mustaqil fikrlash va o'z nuqtayi nazarini ifodalashga bo'lgan intilishini kuchaytirdi. Kuzatuvlar davomida talabalar o'zaro muloqotga kirishishda ko'proq tashabbus ko'rsatayotganliklari, muhokama jarayonida faolroq qatnashayotganliklari aniqlandi. Bu esa lingvistik kompetensiya rivoji bilan bir qatorda kommunikativ ishonch (confidence)ning ham oshganini ko'rsatadi. Shu jihatdan, olingan natijalar TBLT yondashuvining nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantirishda, balki o'quvchilarning umumiy kommunikativ faoliyatini faollashtirishda ham samarali ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida olingan sifat natijalari ham miqdoriy ko'rsatkichlarni tasdiqlaydi. Tajriba guruhidagi talabalar dars jarayonida faolroq ishtirok etganlari, o'z fikrlarini erkinroq ifodalaganlari hamda muhokama jarayonida ko'proq tashabbus ko'rsatganlari kuzatildi. Ayniqsa, task bosqichida talabalar o'zaro muloqotga kirishish, fikr almashish va qaror qabul qilish jarayonida faol bo'lganlari qayd etildi. Bu esa TBLTning asosiy tamoyillariga mos ravishda tilni tabiiy muhitga yaqin sharoitda o'zlashtirish imkonini yaratadi [13]. Shuningdek, post-task bosqichida amalga oshirilgan refleksiya va tahlil ishlari talabalarining o'z xatolarini anglash va ularni tuzatishga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirganligi kuzatildi. Bu esa til o'rganish jarayonining ongli va tizimli shakllanishiga xizmat qilgan muhim omillardan biri sifatida baholanishi mumkin [14; 16]. Umuman olganda, olingan natijalar TBLTning uch bosqichli modeli asosida tashkil etilgan darslar talabalarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda samarali ekanligini, ayniqsa kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda yuqori natijalar berishini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot natijalari TBLTning uch bosqichli modeli asosida tashkil etilgan o'quv jarayonining talabalarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ayniqsa, tajriba guruhida qayd etilgan yuqori o'sish ko'rsatkichlari ushbu yondashuvning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham asoslanganligini ko'rsatadi. Olingan natijalarni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, TBLTning samaradorligi uning ichki tuzilmasi — ya'ni pre-task, task va post-task bosqichlarining o'zaro integratsiyalashgan holda amalga oshirilishiga bevosita bog'liq. Xususan, pre-task bosqichida amalga oshirilgan tayyorgarlik faoliyatlari talabalarining mavjud bilimlarini faollashtirish, mavzuga oid leksik bazani shakllantirish hamda asosiy vazifaga psixologik jihatdan tayyorlash imkonini berdi. Bu holat ijtimoiy-kognitiv yondashuv doirasida izohlanib, o'quvchining rivojlanishi avvalgi bilimlar bilan yangi ma'lumotlar o'rtasidagi bog'lanish orqali yuzaga kelishini ta'kidlaydi [15; 86]. Task bosqichida kuzatilgan yuqori faollik va kommunikativ ishtirok esa TBLTning asosiy tamoyillaridan biri — tilni real kommunikativ faoliyat orqali o'zlashtirish g'oyasi bilan mos keladi. Talabalarining guruhda ishlashi, muhokama olib borishi va qaror qabul qilishi ularning nafaqat lingvistik, balki pragmatik kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qildi. Bu esa Rod Ellis tomonidan ilgari surilgan "tilni o'rganish faol kommunikativ jarayon orqali amalga oshadi" degan fikr bilan uyg'unlashadi [16; 211]. Post-task bosqichida amalga oshirilgan refleksiya va tahlil ishlari esa talabalarining til o'rganishga nisbatan ongli yondashuvini shakllantirdi. Ayniqsa, xatolar ustida ishlash va ularni tahlil qilish jarayoni talabalarining nutq aniqligini oshirishda muhim rol o'ynadi. Bu jarayon til o'rganishda "noticing" (e'tibor qaratish) mexanizmi orqali amalga oshirishini ko'rsatadi, ya'ni o'quvchi o'z xatolarini anglab yetganida ularni tuzatish jarayoni samaraliroq kechadi [17]. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari tajriba guruhida kommunikativ ko'nikmalar, ayniqsa speaking va listening bo'yicha sezilarli o'sish kuzatilganini ko'rsatdi. Bu holat TBLT yondashuvining aynan real hayotiy vaziyatlarga yaqin topshiriqlar asosida qurilishi bilan izohlanadi. Talabalar o'z fikrlarini ifodalashga majbur bo'lgan vaziyatlarda tilni faol qo'llashga kirishadilar, bu esa til kompetensiyasining tabiiy rivojlanishiga olib keladi [18; 67]. Nazorat guruhidagi natijalar bilan taqqoslash esa an'anaviy yondashuvning ayrim cheklovlarini ochib berdi. Xususan, grammatik va leksik materiallarga asoslangan darslar talabalarining til bilimlarini oshirgan bo'lsa-da, ularning kommunikativ faoliyatga kirishish darajasi pastligicha qolgan. Bu esa tilni o'rganishda faqat

strukturaviy bilim yetarli emasligini, balki uni amaliy qo'llash muhim ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari TBLT yondashuvining ESP kontekstida, xususan moliya va iqtisod yo'nalishida ham samarali qo'llanishi mumkinligini ko'rsatdi. Talabalar tomonidan bajarilgan vazifalar kasbiy kontekstga yaqin bo'lgani sababli, ular tilni nafaqat o'rganish obyekti sifatida, balki kasbiy vosita sifatida qabul qila boshladilar. Bu esa o'quv motivatsiyasining oshishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari va ularning tahlili TBLTning uch bosqichli modeli lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda tizimli, izchil va samarali yondashuv ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, ushbu modelning amaliy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi o'quv jarayonining sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

XULOSA. Mazkur tadqiqot natijalari TBLTning uch bosqichli modeli — pre-task, task va post-task bosqichlari asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda samarali yondashuv ekanligini tasdiqladi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur model asosida olib borilgan darslar talabalarning til ko'nikmalarini, ayniqsa kommunikativ faoliyatini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, pre-task bosqichi talabalarni asosiy vazifaga tayyorlash va ularning mavjud bilimlarini faollashtirishda muhim rol o'ynaydi, task bosqichi esa tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash imkonini yaratadi. Post-task bosqichi esa o'z navbatida o'rganilgan materialni mustahkamlash, xatolar ustida ishlash va refleksiya orqali tilni ongli ravishda o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari TBLT yondashuvining moliya va iqtisod yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ham samarali ekanligini ko'rsatdi. Kasbiy kontekstga yaqinlashtirilgan topshiriqlar talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning mustaqil fikrlash va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xulosa qilib aytganda, TBLTning uch bosqichli modeli asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda tizimli va izchil yondashuv sifatida namoyon bo'ldi. Tadqiqot natijalari mazkur yondashuvni oliy ta'lim muassasalarida, xususan ESP kontekstida kengroq qo'llash maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Richards J. C., Rodgers T. S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
2. Graddol D. *The Future of English?* – London: British Council, 2020.
3. OECD. *Skills for the 21st Century*. – Paris: OECD Publishing, 2019.
4. Ellis R. *Task-Based Language Learning and Teaching*. – Oxford: Oxford University Press, 2003.
5. Nunan D. *Task-Based Language Teaching*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
6. Willis J. *Doing Task-Based Teaching*. – Oxford: Oxford University Press, 2007.
7. Long M. *Second Language Acquisition and Task-Based Language Teaching*. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2015.
8. Jalolov J. J. *Chet til o'qitish metodikasi*. – Toshkent, 2003.
9. Saidova M. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida chet tilini o'qitish*. – Toshkent, 2022.
10. Karimova N. *Oliy ta'limda kommunikativ yondashuv asosida chet tilini o'qitish masalalari*. – Toshkent, 2021.
11. Willis J., Willis D. *Doing Task-Based Teaching*. – Oxford: Oxford University Press, 2007.
12. Vygotsky L. S. *Mind in Society*. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
13. Schmidt R. *The role of consciousness in second language learning // Applied Linguistics*. – 1990.
14. Bygate M. *Domains and Directions in the Development of TBLT*. – Amsterdam: John Benjamins, 2016.
15. Skehan P. *A Cognitive Approach to Language Learning*. – Oxford: Oxford University Press, 1998.
16. Anderson L. W., Krathwohl D. R. *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing*. – New York: Longman, 2001.
17. Djurayeva N. K. *The significance of lesson plans in TBLT approach in ESP classes // International Journal of Education*. – 2024.
18. Djurayeva N. K. *Enhancing Linguistic Competence through TBLT in Higher Education*. – Tashkent, 2025.